O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI HUZURIDAGI VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI RIVOJLANTIRISH QO‘MITASI

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

“VETERINARIYA DIAGNOSTIKASI VA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI” FAKULTETIDA

“OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI MUAMMOSINING DOLZARB VAZIFA VA YECHIMLARI” MAVZUSIDA

I-RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

1-dekabr, 2025 yil.







2) Z.J.Shapulatova “Veterinariya mikrobiologiyasi” Toshkent 2019. 121-128 bet.

3) С.Муродов “Қишлоқ ҳўжалик маҳсулотларининг ветсанекспертизаси, қайта ишлаш технология асослари ва стандартизацияси” Самарқанд 1997-йил 194-197-бетлар.

4) P.Mahendra, Yodit Ayele, S.Ajay, F.Dulo “Microbiological and hygienic quality of meat and meat products” BEVERAGE&FOOD WORLD May 2018.

5) А.В.Смирнов «Практикум по ветеринарно-санитарной экспертизе» Санкт-Петербург 2015 год. 51-57-стр.

6) М.Ф.Боровков, В.П.Фролов, С.А.Серко “Ветеринарно-санитарная экспер-тиза” Россия 2010 год. 128-156-стр.

7) Lex.Uz “Go‘sht va go‘sht mahsulotlarini veterinariya-sanitariya ekspertizasidan o‘tkazish qoidalari” 2008-yil.

8) “Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonun ijrosi nazorati Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-noyabrdagi 754-sonli qarori.

9) O‘zb.Resp.VM.ni “O‘zbekiston Respublikasining davlat chegarasi orqali o‘tkazish punktlarida chegara, bojxona, sanitariya-karantin, fitosanitariya va veterinariya nazoratini tashkil etish tartibini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” gi qarori.

10) Statistika qo‘mitasining ochiq ma’lumotlar portali.

UDK: 619:636.92:591.111:577.17

Quyonlar qonining ayrim morfologik ko‘rsatkichlariga Permasol – 500 mineralining ta’siri

Eshimov Dusmurat XXX., Tolibayev Ibrayim Muratbay Uli.

Annotatsiya. Tajribalar uchun mahalliy zotga mansub 1 oylik quyonlardan 45 bosh olinib, har birida 15 boshdan iborat 3 ta guruh tuzildi va ular simli kataklarga joylandi. Birinchi guruh quyonlar xo‘jalik ratsioni asosida oziqlantirildi. 2 va 3- guruhlar tajriba guruhlari bo‘lib ikkinchi tajriba guruhiga permasol-500 mineralidan 6 g/kg, uchinchi tajriba guruhiga 10 g/kg dan 70 kun davomida berib borildi. Qonning morfologik ko‘rsatkichlari tajribaning oxirgi kunida tekshirildi.

Аннотация. Для проведения экспериментов были взяты 45 кроликов местной породы в возрасте 1 месяца, из которых были сформированы 3 группы по 15 особей в каждой, помещенные в сетчатые клетки. Первая группа кроликов содержалась на рационе, используемом в сельском хозяйстве. Группы 2 и 3 были опытными. Второй опытной группе вводили минерал «Пермасол-500» в дозе 6 г/кг, третьей – в дозе 10 г/кг в течение 70 суток. Морфологические показатели крови контролировали в последний день эксперимента.

Abstract. For the experiments, 45 1-month-old rabbits of local breed were taken, 3 groups of 15 rabbits each were formed and placed in wire cages. The first group of rabbits was fed on a farm diet. Groups 2 and 3 were experimental groups, the second experimental group was given 6 g/kg of permasol-500 mineral, and the third group was given 10 g/kg for 70 days. Morphological indicators of blood were checked on the last day of the experiment.

Kalit so‘zlar: permasol-500, quyon, eritrotsit, leykotsit, gemoglobin, mikroelementlar, moddalar almashinuvi.

Ключевые слова: пермасол-500, кролик, эритроцит, лейкоцит, гемоглобин, микроэлементы, обмен веществ.

Keywords: permasol-500, rabbit, erythrocyte, leukocyte, hemoglobin, microelements, metabolism.

Kirish. Bugungi kunda chorvachilikning asosiy tarmog‘i bo‘lgan quyonchilik sohasi keng rivojlanib bormoqda. Shuningdek go‘sht va go‘sht mahsulotlarini yetishtirishda quyon go‘shtining o‘rni alohida ahamiyatga egadir. Quyon go‘shti parhezbopligi, tez hazm bo‘lishi va yog‘ning kam bo‘lishi sababli aholi ehtiyoji ortmoqda. Shu sababli hukumatimiz rahbari tomonidan quyonchilikni rivojlantirish uchun qator farmon va qarorlar chiqarilmoqda. “O‘zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-120-сон 08.02.2022 qarori ushbu sohaga berilayotgan e’tiborning yaqqol misoli. Ushbu qarorda aholi xonadonlarini sifatli quyon go‘shti bilan ta’minlash va ushbu mahsulotlar bilan jahon bozoriga chiqish talablari qo‘yilgan.

Quyonchilik chorvachilikning istiqbolli tarmog‘i bo‘lib, parxezbop mahsulot yetishtiradi. Aholini hayvon oqsillari bilan ta’minlash uchun sifatli chorvachilik mahsulotlari yetishtirish qishloq xo‘jaligidagi eng muhim vazifalardan biridir. Mahsulotlarning saqlash muddati, sifati va miqdorini oshirish uchun tabiiy, hayvonot va mineral xom-ashyodan olingan turli xil biologik faol qo‘shimchalar keng qo‘llaniladi.

Hayvonlarning to‘liq ovqatlanishini ta’minlash faqat ratsionda barcha ozuqa moddalar, shu jumladan minerallar, optimal miqdor va nisbatlarda bo‘lshi kerak. Minerallar hayvonlar va qushlar tanasida muhim va xilma-xil rol o‘ynaydi, energiya almashinuvida, azot, uglevod va lipid almashinuviga ta’sir qiladi. Ular organlar va to‘qimalarning strukturaviy qurilish bloklari bo‘lib, organik moddalarning ajralmas tarkibiy qismlari bo‘lib, toksik moddalarni zararsizlantirishda ishtirok etib, tananing himoya kuchlarini qo‘llab-quvvatlaydi. Minerallar tana vaznining taxminan 5 % ni tashkil qiladi va ularning ko‘pchiligi immunitet tizimining faoliyati kabi mexanizmlarni qo‘llab-quvvatlaydi. Mikroelementlar hujayra funksiyalarini saqlashda ishtirok etadigan, shu jumladan organizmning qarshiligini ta’minlaydigan metallofermentlarning muhim tarkibiy qismidir. Mikroelementlar fermentlar,

gormonlar, vitaminlar, pigmentlarning bir qismi bo‘lib, organizm faoliyatida hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Material va metodlar. Laboratoriya tajribalari uchun Samarqand viloyati Pastdarg‘om tumaniga qarashli «Aslxo‘ja darg‘om agro velikan» MChJ quyonchilik korxonasidan mahalliy zotga mansub 1 oylik quyonlardan 45 bosh olinib, har birida 15 boshdan iborat 3 ta guruh tuzildi va ular simli kataklarga joylandi. Birinchi guruh quyonlar xo‘jalik ratsioni asosida oziqlantirildi. 2 va 3- guruhlar tajriba guruhlari bo‘lib ikkinchi tajriba guruhiga permasol-500 mineralidan 6 g/kg, uchinchi tajriba guruhiga 10 g/kg dan 70 kun davomida berildi. Qonning morfologik ko‘rsatkichlari tajribaning oxirgi kunida tekshirildi. Qon namunalarning makroelement ko‘rsatkichlari Samarqand shahar shifoxonasining ARSYMED tibbiyot laboratoriyasida CS-T180 va BIOBACK nomli asbobda aniqlanildi.


Tajriba davomida olingan raqamlarga S.I.Lyutinskiy, V.S.Stepinlar (1989) bo‘yicha variatsion statistik ishlov beriladi. Raqamlar orasidagi haqoniylik darajasi P ≤0.05 Styudent jadvaliga qarab aniqlaniladi.

Natijalar va ularning tahlili. Permasol-500 mineral qo‘shimchasi quyonlarning ratsioniga 70 kun davomida berilganida, tajriba va nazorat guruhidagi quyonlarning fiziologik holati me’yor darajasida ekanligi aniqlandi. Quyonlar faol, ozuqa istemoli ancha yaxshi, tashqi stimullarga yetarlicha javob berishdi.

Quyonlarning fiziologik holatini keng qamrovli gematologik qon tahlili orqali baholash mumkin, uning natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan.

Ko‘rsatkichlar	Fiziologik norma	Guruhlar, n=3		
		Nazorat	1 tajriba	2 tajriba
Eritrotsit, 10^{12}/l	4,5-7,5	4,64±0,03	4,77±0,07	4,76±0,10
Leykotsit, 10^{9}/l	6,5-9,5	7,09±0,14	7,10±0,11	6,93±0,18
Gemoglobin, g/l	105-125	115,9±0,44	125,6±4,64*	123,6±4,18

***Izoh**: *P<0,05*



Birinchi va ikkinchi tajriba guruhlaridagi quyonlarda qizil qon tanachalari soni nazorat guruhiga nisbatan mos ravishda 1,23 % va 1,65 % yuqori bo‘ldi. Nazorat va birinchi tajriba guruhlaridagi quyonlarda oq qon tanachalari soni o‘xshash edi. Ikkinchi tajriba guruhida bu qiymat nazorat guruhiga nisbatan 2,25 % ga past edi. Ikkala tajriba guruhidagi hayvonlarda ham gemoglobin darajasining oshishi kuzatildi. Birinchi tajriba guruhida gemoglobin darajasi nazorat qiymatlaridan 8,37 % ga, ikkinchi tajriba guruhida esa 6,64 % ga sezilarli darajada oshdi.

Xulosalar. Shunday qilib Permasol -500 mineralini ozuqa bilan istemol qilgan quyonlarning qon ko‘rsatkichlari me’yor darajasida bo‘lib yaxshi ko‘rsatkich ozuqasiga 6g/kg mineral qo‘shilgan 1-tajriba guruhida kuzatilib metabolizm intensivligi oshganligi kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Toshmurodov D.S., Eshimov D., Xalilov O.B. Broyler jo‘jalarining ichak mikroflorasiga xitozan gidroksiapatitini ta’siri //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – T. 2. – №. 7 (44).

2. Паразитология и инвазионные болезни животных/ М.Ш.Акбаев, А.А.Водянов, Н.Е.Косминков и др.; под ред. М.Ш.Акбаева. - М.: Колос, 2002. – 743 с.

3. Ташмуродов Д.С. и др. Влияние рациона с хитозан-гидроксиапатитом на физиолого-биохимические и продуктивные показатели цыплят-бройлеров. – 2023.

4. Ташмуродов Д.С., Эшимов Д. Влияние хитозана (Bombyx mori) с гидроксиапатитом на желудочно-кишечную микрофлору цыплят-бройлеров. – 2023.

MUNDARIJA

1	ИНТЕНСИВ СУВ ҲАВЗАЛАРИДА БАЛИҚЛАР ПСЕВДОМОНОЗИНИ ДАВОЛАШ САМАРАДОРЛИГИ. X.B.Yunusov, F.E.Kurbanov, S.S.Jahongirov.	5
2	HEMATOLOGICAL PARAMETERS OF THE BLOOD OF CARP, CRUCIAN CARP AND CARP INFECTED WITH PROTOZOA IN THE WATER BODIES OF THE SAMARKAND REGION. F.E.Kurbanov., S.Khurramova, S.S.Jakhangirov, O‘.I.Mukhammadiyev.	10
3	QO‘YLARDA BRONXOPNEVMONIYANING ETIOLOGIYASI, DAVOLASH VA OLDINI OLISH USULLARI (Adabiyotlar tahlili). S.B.Eshburiyev, I.A.Xudoyqulov, S.S.Baxtiyorov, Q.S.Bahriddinov.	14
4	GOVERNMENTAL REGULATORY MECHANISMS AND STRATEGIC INTERVENTIONS IN ENHANCING NATIONAL FOOD SAFETY. D.O.Sodiqov, A.A.Zoyirov.	20
5	THE ROLE OF MASS MEDIA IN ENSURING FOOD SAFETY Sh.Z.Muyitinov, Z.A.Gapporov.	29
6	QORAMOL SUTINI VETERINARIYA SANITARIYA JIHATDAN BAHOLASH. N.Q.Mirzayeva, Q.Z.Shomuradov, U.I.Rasulov.	34
7	YOSH QUYONLAR GIPOVITAMINOZIDA GEMOTOLOGIK KO‘RSATKICHLARI. Sh.A.Yusupova, D.H.Abdurahimov, S.A.Aliyarov.	38
8	VITAMINLARNING QUYONLAR ORGANIZMIDAGI AHAMIYATI *(Adabiyotlar Sharhi).* D.S.Abdusalomova, A.I.Rahmonov, S.A.Aliyarov.	42
9	BALIQ GO‘SHTINI VETERINARIYA SANITARIYA EKSPERTIZASI. M.F.Karilova, F.M.Ibragimov.	48
10	BIOFLAVONOIDLARNING QUYONLARDA OKSIDLOVCHI STRESS, YALLIG‘LANISH JARAYONLARI VA IMMUN-METABOLIK MUVOZANATGA TA’SIRINI BAHOLASH. L.Qobilova Laylo, D.Baxtiyorova, B.Hayitova.	51
11	HAYVONLARNING SIMPATOADRENAL STRESS JAVOBIDA DRENALIN GORMONINING O‘RNI. B.B.Raufov, D.G‘.Normamatov, G.B.Ubaydullayeva.	55
12	HAYVONLARDA FOSFOPROTEINLARNING METABOLIK BARQARORLIK HUJAYRA SIGNALIZIATSIYASI VA IMMUN FAOLLIKKA TA’SIRI. A.S.Hamrayev, A.U.Jo‘rayev, G.B.Ubaydullayeva.	58

13	JO‘JALAR EYMERIOZIDA QO‘LLANILGAN KOKSIDIOSTATIKLARNING INVAZIYA INTENSIVLIGIGA TA’SIRI. F.D.Ibragimova, M.Abduraxmonova.	62
14	ГЕМОЛИТИЧЕСКАЯ АКТИВНОСТЬ *SERRATIA MARCESCENS* КАК ФАКТОР ПАТОГЕННОСТИ. U.Kuvondikov, M.Rajabova.	65
15	IMPORT QILINGAN QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARINING VETERINARIYA SANITARIYA EKSPERTIZASI. S.B.Sattorov, F.B.Ibragimov.	73
16	QUYONLAR QONINING AYRIM MORFOLOGIK KO‘RSATKICHLARIGA PERMASOL – 500 MINERALINING TA’SIRI. D.Eshimov, I.M.Tolibayev.	77
17	BUZOQLAR KOLIBAKTERIOZINING ZAMONAVIY DIAGNOSTIKASI VA PROFILAKTIKASI. M.Norbayeva, Z.J.Shapulatova.	81
18	BUZOQLAR SALMONELLYOZINING ZAMONAVIY DIAGNOSTIKASI VA PROFILAKTIKASI. N.Komilova, Z.J.Shapulatova.	84
19	BUZOQLAR KOLIBAKTERIOZIDA IMMUNOGLOBULINLAR VA GEMATOLOGIK KO‘RSATKICHLARNING IMMUN TIZIMGA BOG‘LIQLIGI. N.N.Normamatov, F.A.Sodiqov, D.D.Aliyev.	87
20	QO‘ZILARDA INFEKTSION KASALLIKLARNI KELIB CHIQISHIDA SHARTLI PATOGEN MIKROORGANIZIMLARNING O‘RNI. D.Z.Hikmatillayeva, I.A.Fayzullayev.	92
21	TUYALAR ORGANIZMINING TABIIY REZISTENTLIGI BO‘YICHA ILMIY MA’LUMOTLAR. B.N.Ibodullayev, R.F.Ruzikulov.	97
22	QORAKO‘L QO‘ZILARI QON ZARDOBIDA ANTITELOLAR HOSIL BO‘LISHINING YOSHGA OID XUSUSIYATLARI. M.N.Ergasheva, R.F.Ruzikulov.	100
23	QORAMOLLAR VIRUSLI DIAREYA KASALLIGINING KLINIK BELGILARI VA ZAMONAVIY DIAGNOSTIKASI. R.E.Toshpo‘latov, U.X.Ruzikulova.	108
24	VIRUSLI DIAREYA KASALLIGI BILAN KASALLANGAN BUZOQLARDA PATOLOGOANATOMIK O‘ZGARISHLAR. M.Pardayeva, U.X.Ruzikulova.	103
25	ИЗУЧЕНИЕ ИММУННЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ КРОССОВ КУР ЛОМАН БРАУН И ЛОМАН СЕНДИ. С. Ш.Махмудова, Р.Р.Мирсаидова.	110